

MAQOMLAR -XALQIMIZNING BEBAHO MUSIQIY MEROSI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.026>

Muzaffar Urinovich Naimov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy musiqamiz durdonasi bo'lmish maqomlarning kelib chiqish tarixi, shashmaqom, Xorazm maqomlari hamda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, ularni notaga olinishi va manbaalarga asoslangan ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maqom, ohang, kuy, qo'shiq, meros, turkum, nasr, mushkilot, nomoddiy, janr, an'ana, ashula, mansur, manzum, aytim, katta ashula, variant, noxunak, zarb, parda

MAQOMS - PRICELESS MUSICAL HERITAGE OF OUR PEOPLE

Muzaffar Urinovich Naimov

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract: This article presents the history of the origin of maqoms, which are the masterpieces of our national music, shashmaqom, Khorezm maqoms, and Fergana-Tashkent maqom, their notation, and information based on sources.

Keywords: Maqom, melody, melody, song, heritage, category, prose, difficulty, intangible, genre, tradition, song, mansur, manzum, aytim, katta ashula, variant, nohunak, zarb, parda

Maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan.

Maqomlar Sharq xalqlari musiqasinining asosini tashkil etadi. Shu sababli maqomlarni atroflicha o'rganilish musiqa madaniyatimiz tarixida muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda O'zbekistonda Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek sunray, tanbur, sato, dutor, g'ijjak

kabi sozlar, ba'zan sozandalar ansambli ijro etadigan cholg'u maqomlar amaliyotda yashab kelmoqda.¹

O'zbek-Tojik xalqlaridagi maqomlarning amaliy tomonlarini ustoz sozanda va xonandadan shogirdga og'zaki o'tib, bizgacha yetib kelgan maqomlar turkumidagi birdan-bir janr-Shashmaqom ko'rinishida tasavvur etish mumkin. Uning shakllanish jarayoni ancha ilgari boshlanganligi tabiiydir. O'n ikki maqom ("Duvozdahmaqom") turkumi mukammalroq bo'lib, olti maqom turkumi-"Shashmaqom"ning shakllanishida hal etuvchi o'ringa ega bo'lgan. Shashmaqom ikki yuz elikka yaqin kuy va ashulalardan iborat hamda o'zbek-tojik xalqlari musiqa merosining salmoqli qismini tashkil etadi.²

XX asr boshlarida o'zbek-tojik xalqlari musiqa san'ati boyliklarini dastlab professor B.A.Uspenskiy notalashtirishga kirishdi va u notaga olgan Shashmaqom nashr etildi.³

Keyingi nashr esa 1959yilda Shashmaqom O'zbekistonda ham nashr etildi. Uni Yunus Rajabiy notaga olgan bo'lib, Ilyos Akbarov tahriri ostida bosilib chiqdi.⁴

O'zbek maqomining bilimdoni, ustoz akademik Yunus Rajabiynin xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim deb o'ylayman. Yunus Rajabiy, asrlar osha og'zaki an'anada saqlanib kelayotgan maqomlarga, yangi hayot baxshida etib uni notalashtirib, xalqqa o'z durdonalarini taqdim qildi.

Buxoro Shashmaqomini o'rganishda Abdurauf Fitrat (1887-1938)ning xizmatlari alohida e'tiborga sazovordir. Uning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asari maqomlar haqida ilmiy tadqiqotlardan biri bo'ldi. Bu kichik monografik asarda muallif Shashmaqomning tuzilishi va uning yaqin o'tmish tarixini manbalar asosida yoritishga harakat qilgan. Maqom yo'llarini yaxshi egallagan Fitrat o'z asarida, qisman bo'lsa-da, maqomlarni xalq musiqa asarlari bilan taqqoslab ta'riflashga uringan.⁵

Maqom atamasi arabcha so'z bo'lib, "istiqomat o'rni", "turar joy" ma'nolarida keladi. Musiqa istilohida esa maqom-musiqa cholg'ularida kuy va ashulalardan tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni, ya'ni pardalardir.⁶

Qadimiy madaniyat markazlaridan biri-Buxoro bir qancha sulola va davlatlar poytaxti bo'lib kelgan. Musiqa madaniyatida ham Buxoro O'rta Osiyo xalqlari musiqa boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan markaziy shahar vazifasini o'tagan edi. Shuning uchun Shashmaqom Buxoroda XYIII asrda shakllandi va "Buxoro Shashmaqomi" deb ataldi.⁷

¹ IO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENSIKLOPEDIYASI. TOSHKENT, QOMUSLAR BOSH TAHRIRIYATI, 1997, 583B.

² I.Rajabov.Maqomlar.Toshkent, San`at nashriyoti 2006 yil,-11 bet.

³ Шесть музыкальных поэм, Бухара, 1924.

⁴ O'zbek xalq musiqasi, V jild ("Buxoro maqomlari"), Toshkent, 1959.

⁵ A.Fitrat.O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Samarqand-Toshkent, 1927 yil.

⁶ I.Rajabov.Maqomlar.Toshkent,San`at nashriyoti,2006,-63 bet.

⁷ I.Rajabov.150b

Shashmaqom- Buzruk, Rost, Navo, Dygoh, Segoh, Iroq maqomlaridan iborat. Har bir maqom ikki bo‘limdan -cholg‘u va ashula bo‘limlaridan iborat bo‘lib, ular so‘nggi davrlarda “Mushkilot” va “ Nasr” iboralari bilan ham atalgan. Hozirda esa “Mansur” yoki “ Manzum” yoki “Aytim yo‘li” deb ham ataladi. Maqomlarning cholg‘u qismi- Mushkilot nomi bilan ataladi. Maqomlarning ashula qismi-Nasr nomi bilan ataladi. Cholg‘u kuylarida Tasnif, Tarje’, Gardun, Muxammas, Saqil nomli kuylar o‘rin olgan bo‘lib, ashula bo‘limida esa Saraxbor, Talqin, Nasr, Savt va Mug‘ulcha yo‘llari muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Shashmaqom ashula yo‘llarida o‘zbek hamda fors mumtoz shoirlaridan Rudakiy, Jomiy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz, Amiriy, Nodira, Zebunniso, Ogahiy, Muqimiy va boshqalarning ishqiylik, falsafiy, nasihatombuz, diniy mazmundagi g‘azallari, shuningdek, xalq to‘rtliklari jalb etilgan.

Ota Jalol, Otag‘iyos Abdug‘aniyev, Domla Halim Ibodov, Shorahim Shoumarov, Abdusoat Vahobov, Usto Shodi Azizov kabi maqomdon sozanda va hofizlardan juda ko‘plab maqom ashulalari yozib olingan.

O‘zbek va tojik xalqlarining musiqiy merosi bo‘lmish “Shashmaqom”ning YUNESKO tomonidan 2003 yili noyabr oyida “Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi” deb tan olinishi bejizga emas albatta.

Xorazm maqomlarini notalashtirish maqsadida shoir, olim, mashhur bastakor Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy) Xorazm tanbur nota chizig‘i ixtiro etgan edi. Bu nota yozuv usuli maxsus tanbur uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning 18 pardasiga asoslanib 18 chiziq olinadi. Chiziqlarning ost va ustiga qo‘yiladigan yakka, qo‘shaloq va uchtalik nuqtalar esa, noxunak zarblarini ifodalaydi. Shakl jihatdan bir-biridan farqi bo‘lmagan bu nuqtalar kuylarni tashkil etgan tovushlar uzunligini ifodalay olmaydi. Nota nuqtalarining uzun-qisqaligi esa, doyra usulining zarblariga qarab belgilansa bo‘ladi. Komil Xorazmiy Rost maqomini notaga olgan edi. Uning bu ishini bastakorning o‘g‘li shoir Muhammad Rasul Mirzo davom ettirdi va qolgan hamma maqomlarni nota chizig‘iga yozib, oxiriga yetkazadi. Bu nota usuli Xorazm maqomlarini o‘rganishda o‘z zamonasi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Lekin nota chizig‘i hozirgi zamon nota tizimida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarga ega emas edi. Xorazm nota usulida yozib olingan maqomlarning bir qismi musiqashunoslarimiz tomonidan hozirgi zamon notasiga ko‘chirilib nashr etildi. Tanbur chizig‘ining rasshifrovka qilinib nasr etilishi shu jihatdan ham muhimki, bu yozuvlar XIX asr Xorazm maqomlarining aslini o‘rganishga vosita bo‘la oladi.

Xorazm maqomlari variantlari dastlab musiqashunos E.E.Romanovskaya tomonidan 1939 yilda notaga olinib nashr etilgan. Bu kitob Xorazm maqomlarining faqat cholg‘u yo‘llarini o‘z ichiga olgan edi. Keyingi yillarda Xorazm maqomlarini

¹ Y.Rajabiy.O‘zbek maqomlari. Toshkent,Yunesko,2007,-17 bet.

Matniyoz Yusupov tomonidan to'planib, notaga olindi va Ilyos Akbarov tahriri ostida bosilib chiqdi.¹

Matniyoz Yusupov to'plab notaga olgan Xorazm maqom va sho'balari quyidagichadir:

1. Rost
2. Buzruk
3. Navo
4. Dugoh
5. Segoh
6. Iroq

Bizgacha yetib kelgan Xorazm maqomlari Buxoro maqomlaridan ba'zan farqlanar ekan, bu hech ajablanarliq hol emas, albatta. Chunki, o'zining ko'p asrlik ijrochilik, bastakorlik, ixtirochilik an'analari ega bo'lgan Xorazm musiqachilari tomonidan sheva jihatidan ba'zi xos xususiyatlarga ega bo'lgan Buxoro Shashmaqomini notasiz, og'zaki o'rganish jarayonida ham maqomlarning o'zgarishlarga uchrashi turgan gap. Bundan tashqari, xorazmlik musiqachi va shinavandalar maqomlarni o'z sharoiti, estetik talablariga moslashtirib olishlarida ham ular katta o'zgarishlarga uchragan edi.²

Xorazm maqomlari ham Shashmaqom kabi ikki bo'limdan iborat. Xorazm maqomlari kitobida esa cholg'u yo'llari chertim, ashula yo'llari aytim yo'li deb ataladi.

Shashmaqom yaratilgandan keyingi davrlarda Toshkent va Farg'ona vodiysida bir necha musiqa asarlari turkumi, yuzlab kuy va ashulalar-maqomlarning ma'lum variantlari tarzida yuzaga kelgan. Bu hol, albatta, bastakorlikda maqom yo'llarini turli doira usuliga tushurib, ularning kuy yoki ritmik variantlarini ishlash uchun imkoniyatlar keng bo'lganining natijasidir. Bunday maqomchasiga ishlangan musiqa asarlari orasida kuy qiyofasi va tuzilishidagi xarakterli belgilari nuqtayi nazaridan uch maqom turkumi alohida ajralib turadi. Bu Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari -Bayot, Dugohi Husayniy, Chorgohdir. Ularning har biri oltitagacha shoxobchalarga ega, hamda raqslar bilan bir-biridan ajratiladi. Masalan, Bayot-I-II-III-IV, Chorgoh I-II-III-IV-V kabi nomlanadi. E'tiborli tomoni shuki, Toshkent, Farg'ona maqom yo'llari Shashmaqom ashula bo'limining birinchi va ikkinchi qismiga kirgan sho'balar-Sarahbor, Nasr, Savt, Mug'ulcha kabi maqom sho'balaridagi tuzilish tartibida ishlangan, ya'ni ulardagi takt-ritm o'lchovi, doira usuli, ashula yo'lining harakati, ularga xos she'r o'lchovi ham saqlangan.

Toshkent-Farg'onada mashhur bo'lgan bu maqom turkumlari asosan ashula yo'llaridan iborat bo'lib, ularda Shashmaqomdagi kabi cholg'u yo'llar uchramaydi. Lekin sozandalar bu ashula yo'llarini cholg'u asarlari sifatida ham ijro etib kelganlar.

¹ I.Rajabov 40-41 betlar.

² I.RAJABOV.-269

Farg‘ona-Toshkent maqomlari Shashmaqomdan farqli o‘laroq yaxlit bir turkumga uyushmagan bo‘lib, balki alohida-alohida bo‘lgan kichik turkumlardan tashkil topgan. Xalqimizning sevimli Munojot, Segoh, Bayot, Bayoti-Sheroziy, Dugohi Husayniy, Surnay navolari kabi kuy va ashula yo‘llari ana shular jumlasidandir. Mazkur turdagi maqom yo‘llari asosan Toshkent va Farg‘ona vodiysida mashhur bo‘lib, keng tarqalganligi sababli ularni “Farg‘ona-Toshkent maqomlari” deb yuritiladi. Ushbu maqomlarning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, ularda vodiya tarkib topgan ashula, yalla, katta ashula janrlarining ohang-kuy xususiyatlari hamda usullari o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Shunday ekan bebaho musiqiy merosimiz bo‘lmish maqomlarimizni ilmiy o‘rganish, yoshlar o‘rtasida targ‘ibot qilish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, barchamizning oldimizga qo‘yilgan ulkan maqsadlarimizdan biridir.

Foydalanilgan adatyotlar

- 1 . O‘zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. Toshkent, Qomuslar Bosh tahririyati, 1997, 583b.
- 2 . I.Rajabov.Maqomlar.Toshkent, San’at nashriyoti 2006 yil,-11; 40-41; 63; 150; 269 betlar.
3. Шесть музыкальных поэм, Бухара, 1924. 40-41; 63; 150; 269 betlar.
4. O‘zbek xalq musiqasi,V jild (“Buxoro maqomlari”), Toshkent,1959.
5. A.Fitrat.O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Samarqand-Toshkent, 1927 yil.
6. Y.Rajabiy.O‘zbek maqomlari. Toshkent,Yunesko,2007,-17 bet.
7. Oqilxon Ibrohimov.Maqom asoslari. Toshkent. Turon-Iqbol nashriyoti.2018,-109b.
8. Naimov, M. (2022). Surxondaryo folklor-etnografik. Xalq havaskorlik” jamoalari”. Toshkent.
9. Muzaffar, O. (2024). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa mashg‘ulotlarida bolalarga folklor qo‘shiqlarni o‘rgatish. Oriental Art and Culture, 5(1), 204-207.
10. Naimov, M. (2024). SURXON VOHASINING TURMUSH TARZI, TARIXIY MADANIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI. Journal of universal science research, 2(5), 1089-1094.
11. Naimov, M. (2024). MUSIQA MASHG‘ULOTLARIDA BOLALARGA FOLKLOR QO‘SHIQLARNI O‘RGATISH. Journal of universal science research, 2(5), 1047-1051.
12. Naimov, M. (2024). SONG GENRE-ITS PLACE IN FOLKLORE ART. Journal of universal science research, 2(5), 1067-1072.

13. Naimov, M. (2024). FOLKLORE SONGS TO CHILDREN IN MUSIC CLASSES. *Journal of universal science research*, 2(5), 1063-1066.
14. Durdikulovich, A. K. (2025). APPLICATION OF SIMULATIVE TECHNOLOGIES IN TRAINING MUSIC EDUCATORS BASED ON THE CREDIT-MODULE SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(02), 71-73.
15. Kosimov, Abdulaziz. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING SIMULATIVE TECHNOLOGIES IN TRAINING FUTURE MUSIC TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.3 (2025): 170-174.
16. Косимов, А. (2025). ГАРМОНИЯ ИНТЕГРАТИВНЫХ И СИМУЛЯТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ. *Предпринимательства и педагогика*, 4(3), 126-132.
17. DURDIKULOVICH, K. A. (2025). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SAN'AT, MUSIQA VA IJODIY FAOLIYAT ORQALI ESTETIK TARBIYALASH. *KONFERENSIYA*, 1(1), 333-340.
18. Durdikulovich, A. K. (2025). METHODOLOGY FOR APPLYING SIMULATIVE TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 12(02).
19. Kosimov, A. (2025). APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION: FORMATION OF TEACHER COMPETENCE BASED ON SIMULATION AND REFLECTIVE ANALYSIS APPROACHES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 159-164.
20. Durdikulovich, K. A. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING ESHITUV QOBILIYATLARINI HAMDA OVOZINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *IMRAS*, 7(4), 204-208.
21. Косимов, А. (2025). METHODOLOGY FOR APPLYING SIMULATIVE TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH. *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок*, 1(1), 46-49.